



HARBIY XIZMATCHILARNI HARBIY XIZMAT JARAYONIGA MOSLASHISHNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

Urmonov Ravshanbek Gulomovich

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi magistranti

Annotatsiya: *Harbiy xizmatchilarni harbiy xizmat jarayoniga moslashtirish hozirgi zamonning dolzarb muammosidir, chunki kelajakdagi mutaxassisning kasbiy faoliyati va shaxsiy rivojlanishi moslashuv jarayonining muvaffaqiyatli kechishiga bog'liq. Ko'plab zamonaviy harbiy xizmatchilar o'zini o'zi rivojlantirishda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Ushbu muammoni hal qilish uchun harbiy xizmatchilarning harbiy xizmat jarayoniga moslashishini amaliy va nazariy bilimlarga tayangan holda o'rganish muhimdir. Bunday moslashish psixologik to'siqlarni yengishga yordam beradi.*

Kalit so'zlar: *adaptatsiya, psixologik omil, shaxs, harbiy xizmatchi, mutaxassis, kasbiy faoliyat, ta'lim jarayoni.*

Аннотация: *адаптация военнослужащих к процессу военной службы является актуальной проблемой современности, поскольку от успешного прохождения процесса адаптации зависит профессиональная деятельность и личностное развитие будущего специалиста. Многие современные военнослужащие испытывают трудности в саморазвитии. Для решения этой проблемы важно на основе практических и теоретических знаний изучить адаптацию военнослужащих к процессу военной службы. Такая адаптация помогает преодолеть психологические препятствия.*

Ключевые слова: *адаптация, психологический фактор, личность, военнослужащий, специалист, профессиональная деятельность, образовательный процесс.*

Abstract: *adaptation of military personnel to the process of military service is an urgent problem of our time, because the professional activity and personal development of a future specialist depends on the successful passage of the adaptation process. Many modern military personnel have difficulties in self-development. To solve this problem, it is important to study the adaptation of military personnel to the process of military service based on practical and theoretical knowledge. Such adaptation helps to overcome psychological obstacles.*

Key words: *adaptation, psychological factor, person, military serviceman, specialist, professional activity, educational process.*

KIRISH

Jahonda ta'lim sohasida izchillik bilan amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning tub markazida shaxs va uning ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlarga alohida



e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda psixologik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, har bir shaxs va uning ijtimoiy muhit bilan bog'liq o'ziga xos psixologik imkoniyatlariga yetarlicha baho bermay turib shaxsning taraqqiyotiga hozirgi zamon talablariga mos tarbiyaviy ta'sir etish juda mushkuldir. Tabiiyki, bu holat psixologlar zimmasiga yanada ko'proq mas'uliyat yuklaydi. Shu nuqtai nazardan maxsus dasturlar asosida tashkil etilgan psixologik xizmat jarayoni harbiylar guruhlarida guruhiy munosabatlar dinamikasi, guruhiy faollik motivatsiyasining muayyan darajada shakllanishi hamda rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz har bir ta'lim oluvchi shaxsiga, uning guruhdagi mavqeiga ta'sir etuvchi ijtimoiy - psixologik omillarga jiddiy e'tiborni qaratish orqali o'sib kelayotgan yosh, bunyodkor avlodni jamiyat istiqbollari uchun yetarli darajada fidoiy, vatanparvar va xalqparvar qilib tarbiyalash masalasi bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Albatta, bu dolzarblik zamirida har bir o'quvchi shaxsining guruhdagi mavqei, guruhda o'z "menligi"ning ifodalanishi bilan bog'liq refleksiya va identifikatsiya jarayonlarining kechishi, o'ziga xos individual imkoniyatlarning namoyon etilishi kabi holatlarni tahlil qilish va shu tahlillarga tayanib har bir ta'lim oluvchi shaxsiga hamda uning guruhiga psixologik xizmat ko'rsatish jarayonining nechog'lik muvaffaqiyatli tashkil etilishi yotadi. Ushbu jarayonda psixologik xizmat ko'rsatish orqali har bir ta'lim oluvchi shaxsining o'ziga xos ijtimoiy-psixologik taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etish mumkin.

ASOSIY QISM

Moslashish (adaptatsiya) - bu munosabatlarning tabiatini o'zgartirish, ta'lim oluvchining ta'lim muassasasidagi o'quv jarayonining mazmuni va uni tashkil etilishiga munosabatidir. Aqliy moslashuv inson yoki guruhning faoliyati bilan bog'liq bo'lib, atrof-muhitga moslashish yoki o'ziga atrof-muhitni moslashtirish jarayonlarining o'zaro ta'siri sifatida tushiniladi.

Psixologiyada "moslashish" atamasi obyektiv atrof-muhit omillari ta'siri ostida shaxsning psixikasini qayta tuzishni, shuningdek, insonning turli xil atrof-muhit talablariga ichki noqulaylik sezmasdan va atrof-muhit bilan ziddiyatsiz moslasha olish qobiliyatini anglatadi. Bu moslashuv hodisasining protsessual tomonini, hayvonlarning moslashuvidan farqli o'laroq, qiyinchiliklarni yengib o'tish yoki ma'lum shaxsiy xususiyatlarning shakllanishi, masalan, kasbiy fazilatlarining yuzaga kelishida namoyon bo'ladi. Harbiy xizmatchilarining yangi muhitiga moslashishi, undagi ijtimoiy-psixologik jihatlar Povalyova.M.A., Pean A.A., Kudashev A.R., Baranov A.A., Vsevolodova N.A., Babaxan Yu.S., Dubovitskaya T.D asarlarida va ilmiy ishlarida yetarlicha asoslanib o'rganilgan. Harbiy xizmat jarayoni harbiy xizmatchilarni yangi madaniy muhitga jalb qilish bilan birga kechadi, bu moslashish jarayonining boshlang'ich mexanizmi hisoblanadi. Moslashuvning muvaffaqiyati harbiy xizmatchilarning zahira imkoniyatlarini yangilash va bu jarayonida duch keladigan turli xil qiyinchiliklarni yengishga tayyorligini o'z ichiga oladi.

Yangi muhitga moslashishda quyidagi qiyinchiliklarga duch kelinadi:

- Eski qadriyatlar tizimiga amal qilish;



- Assimilyatsiya;
- Yangi turar-joy sharoitlariga moslashish;
- Yangi do'stlari bilan muloqot;
- O'qituvchi shaxsi;
- Tabiiy sharoit va boshqalar.

Moslashuv samaradorligining mezonlari qanday? Uning muvaffaqiyatini qanday ta'minlash mumkin? degan savollar hozirda ko'plab uchramoqda. Mezonlar orasida, birinchi navbatda, kuzatilishi oson bo'lgan obyektiv mezonlarni ta'kidlaymiz. Bu akademik ko'rsatkichlar, jamoat hayotining turli shakllarida ishtirok etish darajasi, salomatlik holati (ham psixologik, ham jismoniy salomatlik), ilmiy faoliyat darajasi bo'lishi mumkin. Shuningdek, obyektiv faktorlar bilan bir qatorda subyektiv mezonlar mavjud, ular faoliyatdan qoniqish (atrof-muhit, vaziyat va boshqalar), o'zini takomillashtirish va o'zini o'zi anglash istagi, yetakchi qiymat yo'nalishlari, o'z-o'zini hurmat qilish, hissiy barqarorlikni o'z ichiga oladi.

Moslashish harbiy xizmatchilarga nafaqat yangi sharoitlarga ko'nikishni, balki xatti-harakatlarning yangi shakllari va yangi ijtimoiy rollarni aniqlash imkonini beradi. Ushbu jarayon tufayli shaxsning yangi muhitda eng yaxshi faoliyati uchun sharoitlar yaratilmoqda. Agar moslashuv ro'y bermasa, harbiy xizmatchida harbiy xizmat jarayonida qiyinchiliklarga duch kelish hollari ham yuz beradi. Harbiy xizmatchilarni moslashtirish masalasi haligacha dolzarb bo'lib qolmoqda. Harbiy xizmatchilarning harbiy xizmat jarayoniga moslashishi ijtimoiy, psixologik, pedagogik va boshqa jihatlarni qamrab oluvchi hodisadir.

Korovina.I.V fikriga ko'ra esa, harbiy xizmatchilarning psixologik moslashuvida quyidagilarni yaqqol ajralib ko'rsatish mumkin deb hisoblaydi: sharoitlarga moslashish (ish va dam olish rejimiga, mustaqil hayot tarziga va shunga o'xshashlar kabiga moslashishda namoyon bo'ladi);

- guruhga moslashish (hamkasblarni jamoaga kiritish, uning qoidalari, an'analarini o'zlashtirish);
- kelajakdagi kasbga moslashish (kasbiy bilim, ko'nikma va fazilatlarni o'zlashtirish) guruhga moslashish (hamkasblarni jamoaga kiritish, uning qoidalari, an'analarini o'zlashtirish) kabilar.

Shaxsni shakllantirishning eng muhim sohalariga asoslanib, harbiy xizmatchilarining moslashuv jarayonining asosiy mazmunini quyidagicha aniqlash mumkin:

- harbiy xizmat jarayonidagi qoidalarni o'zlashtirish - harbiy xizmatchilarda kasbga tayyorgarlik, kasb layoqatini o'qishning dastlabki yillaridan shakllantirishga e'tibor qaratishga doir chora-tadbirlarni qo'llash;
- ilmiy faoliyatning yangi soha va turlariga o'qitish;
- harbiy xizmatchilar turar joyidagi yangi yashash sharoitiga moslashish va boshqalar.



Tadqiqotdan xulosa qilib shuni aytish mukinki, quyida keltiriladigan chora-tadbirlar harbiy xizmatchi yoshlardagi o'quv muhitiga moslashish jarayonini yengillashtiradi:

- Harbiy xizmatchilarni yangi muhitiga moslashtirish uchun psixologlar tomonidan alohida chora-tadbirlar qo'llash lozim;
- Harbiy xizmatning dastlabki kunlaridanoq psixolog tomonidan yangi kelgan harbiy xizmatchining o'quv motivlarini aniqlashga qaratilgan so'rovnomalar o'tkazishilishi kerak, shu orqali harbiy xizmatchini keyingi faoliyatidagi samaradorligini ta'minlash mumkin;
- Harbiy xizmatchi uchun yangi bo'lgan harbiy xizmat haqida unga to'liq ma'lumot berish, ya'ni, oldindagi hodisalarga nisbatan ustanovka hosil qilish lozim.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, harbiy xizmatchilarni yangi o'quv sharoitlariga moslashtirish pedagogik va psixologik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, hozirgi kunda harbiy xizmatchilarda uchraydigan depressiya, stress, o'quv materiallarini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar tom ma'noda yangi muhitga moslashishning negativ oqibatlaridir.

Ikkinchidan, harbiy xizmatchilarga bu kabi salbiy holatlarni yengishda ularning individual psixologik xususiyatlari bilan bir qatorda, harbiy xizmat jarayonidagi mahoratli pedagoglarning tavsiyalari, guruh jamoasidagi qo'llab-quvvatlashlar ham yordam beradi.

Uchinchidan, shaxsning yangi madaniy muhitga moslashishi albatta, ma'lum qiyinchiliklarsiz o'tmasligi yuqoridagi tadqiqotlardan ma'lum.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shaykhislamov, N. (2020). The Role of Lingvoculturology in Speech Culture. O'zbekistonda innovatsion ilmiy tadqiqodlar va metodlar, 136-140.
2. Shaykhislamov, N. (2020). In the Field of Modern Linguistics – Linguoculturology. Мировая наука, 8(41), 33-36.
3. Shaykhislamov, N. (2020). Lingvokulturologiyaning tarixiy va nazariy asoslari. O'zbekistonda ilm-fan va ta'lim, (2), 186-188.
4. Shayxislamov, N. (2020). Proverb as an object of linguistic analysis. Yoshlarning innovatsion faolligini oshirish, ma'naviyatini yuksaltirish va ilm-fan sohasidagi yutuqlari, 31-33.
5. Shayxislamov, N. (2020). Ona tili darslarini o'qitishda kakografiya usulini qo'llash. Янги Ўзбекистонни қуриш ва ривожлантиришда ёшларнинг фаоллиги, 317-320.